

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

tizimi uchun zamonaviy, moslashuvchan, refleksiv va pedagogik jarayonni puxta loyihalay oladigan mutaxassis tayyorlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Деркач, А. А., Зызыкин, В. Г. Акмеология: учебное пособие. СПб.: Питер, 2003.
2. Маркова, А. К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996.
3. Кузьмина, Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высшая школа, 1990.
4. Слостенин, В. А., Исаев, И. Ф., Шиянов, Е. Н. Педагогика. М.: Академия, 2002.
5. Хуторской, А. В. Современная дидактика. СПб.: Питер, 2001.
6. Краевский, В. В. Методология педагогики: новый этап. М.: Академия, 2006.
7. Зеер, Э. Ф. Психология профессионального развития. М.: Академия, 2006.
8. Беспалько, В. П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.
9. Климов, Е. А. Психология профессионального самоопределения. Ростов н/Д: Феникс, 1996.
10. Монахов, В. М. Педагогическое проектирование — современный инструментарий дидактических исследований // Школьные технологии. 2001. № 5. С. 75–89.

**TALABALARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING
METODIK ASOSLARI**

Ergashev Doniyor Dovronovich

“Alfraganus University” Filologiya fakulteti ingliz tili katta o‘qituvchisi, ChDPU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur tezisda oliy ta’lim jarayonida talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’limda chet tilini bilish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan emas, balki til birliklaridan kommunikativ vaziyatga mos, mazmunli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, lingvistik kompetensiya fonetik, leksik, grammatik va semantik bilimlarning o‘zaro integratsiyasiga tayangan holda shakllanishi lozim. Ishda kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari hamda til faoliyati turlarining o‘zaro aloqadorligi metodik asos sifatida qaraldi. Natijada talabalarining og‘zaki va yozma nutqida aniqlik, mantiqiylik, til me‘yorlariga rioya qilish hamda o‘quv materialini mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bosqichli metodik tizim zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar. lingvistik kompetensiya, metodik asos, kommunikativ yondashuv, til ko‘nikmalari, chet til ta’limi, leksik va grammatik birliklar, oliy ta’lim, o‘quv faoliyati.

Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi bugungi oliy ta’lim tizimida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki chet tilini o‘qitish jarayonida tilni faqat qoidalar majmui sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish talabi kuchaymoqda. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi dastlab Dell Hymes tomonidan ijtimoiy vaziyatga mos til ishlatish qobiliyati sifatida ilgari surilgan, keyinchalik Canale va Swain tomonidan grammatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlar bilan boyitilgan. CEFR ham til o‘rganuvchining bilimini alohida qoida yodlash bilan emas, balki amaliy faoliyatda tilni qo‘llash darajasi bilan tavsiflaydi. Shu bois lingvistik kompetensiya talabaning fonetika, leksika, grammatika va semantika bo‘yicha egallagan bilimlarini bir butun tizimga birlashtiruvchi omil sifatida qaraladi. Oliy ta’limda bu kompetensiyani shakllantirish uchun an‘anaviy izohli usullardan tashqari faol, interaktiv va refleksiv metodlardan foydalanish muhimdir.

Tadqiqotda tahliliy-sintetik yondashuv, kompetensiyaviy tahlil hamda metodik kuzatish usullaridan foydalanildi. Avvalo, lingvistik kompetensiyaning nazariy asoslari chet til o‘qitish

metodikasi bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar asosida o'rganildi. Shundan so'ng oliy ta'lim sharoitida bu kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar saralandi va ularning ta'lim jarayoniga mosligi baholandi. Metodik jihatdan asosiy e'tibor til materialining bosqichma-bosqich berilishi, mashqlarning reproduktivdan produktivga qarab murakkablashuvi, tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish faoliyatining uyg'un tashkil etilishiga qaratildi. Jalolovning chet til o'qitish metodikasiga doir ishlari ta'lim mazmuni, maqsadi va vositalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib berishi bilan metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Richards va Rodgers yondashuvlari esa til o'qitishda metod tanlovi o'quv maqsadi, material xususiyati va auditoriya ehtiyojiga muvofiq bo'lishi kerakligini asoslaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi avvalo til birliklarini alohida o'rgatish emas, ularni nutqiy vazifalar tarkibida qo'llash bilan bog'liq. Fonetik birliklar to'g'ri talaffuz va eshitib farqlash ko'nikmasini shakllantirsa, leksik birliklar fikrni aniq ifodalashga, grammatik vositalar esa mazmunni mantiqiy tuzishga xizmat qiladi. Biroq bu sathlarning alohida o'qitilishi kutilgan natijani bermaydi. Ularning integratsiyasi asosida tuzilgan mashqlar tizimi talabaga til hodisasining shakli, ma'nosi va vazifasini bir vaqtda anglash imkonini beradi. Shuningdek, matn bilan ishlash, vaziyatli topshiriqlar, dialogik mashqlar va yozma refleksiya topshiriqlari lingvistik kompetensiyaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, talaba faqat tayyor qoida va namunani takrorlaganda emas, balki mustaqil tanlov, taqqoslash va xulosa chiqarish jarayoniga kirganda til materialini chuqurroq o'zlashtiradi. Shu sababli metodik tizimda muammoli vaziyatlar yaratish, autentik matnlardan foydalanish va xatolar ustida tahliliy ishlash muhim o'rin egallaydi.

Olingan natijalar lingvistik kompetensiyani rivojlantirish biryozlama grammatika markazli yondashuv bilan cheklanmasligi kerakligini ko'rsatadi. Amaliyotda ko'p hollarda talaba qoidani biladi, ammo uni real muloqotda qo'llashda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat til birliklari bilan kommunikativ faoliyat o'rtasidagi uzilish natijasidir. Shuning uchun metodik tizimda bilim, ko'nikma va malakani yagona didaktik jarayon sifatida tashkil etish lozim. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishning samarali modeli o'quv materialining mantiqiy ketma-ketligi, vazifalarning kommunikativ yo'nalganligi, muntazam qayta aloqa va individual yondashuvga tayanadi. Bunday tizim talabani passiv tinglovchidan faol nutqiy subyektga aylantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi nazoratchi emas, balki til faoliyatini yo'naltiruvchi metodik hamroh sifatida namoyon bo'ladi. Demak, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari nafaqat til materialini tanlash, balki uni qanday ketma-ketlikda, qanday vaziyatda va qaysi faoliyat turi orqali berish masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlarning uyg'unligiga tayanishi zarur. Til sathlarini integrativ o'qitish, mashqlarni bosqichli tashkil etish, nutqiy faoliyat turlarini o'zaro bog'lash va refleksiv nazoratni yo'lga qo'yish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Oliy ta'limda lingvistik kompetensiya shakllangan talaba chet tilidagi o'quv materialini nafaqat tushunadi, balki undan mustaqil, maqsadli va vaziyatga mos ravishda foydalana oladi. Shu jihatdan mazkur metodik asoslar bo'lajak mutaxassisning kasbiy va akademik rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.

3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
5. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

FRAZEOLOGIK TIZIMDA ERKAK OBRAZINING DONOR KONSEPTUAL ZONALAR ASOSIDA SEMANTIK TALQINI

Qoraqo ‘ziyeva Diyora
Andijon davlat universiteti doktoranti
diyoraotajonova17@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologik tizimda erkak obrazi donor konseptual zonalar asosida semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda erkaklikni ifodalovchi frazeologik birliklarning manba sohalari aniqlanib, ularning kognitiv asoslari hamda madaniy-milliy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, erkak obrazining kuch, jasorat, ijtimoiy rol va xarakter bilan bog‘liq semantik komponentlari ochib berilib, til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: biologik jins, kognitiv marker, formla marker, pragmatik marker, donor konseptual zona, metaforik proyeksiya, zoomorf birlik.

Biz genderni til birliklarida “biologik jins”ning bevosita aksi sifatida emas, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik rollar, maqomlar, xulq me‘yorlari va ularga bog‘langan baho-mezonlarning lisoniy ko‘rinishi sifatida talqin qilamiz.

Gender masalasi tilshunoslik doirasiga kirib kelishi bilan u, avvalo, “*til – ideologiya – ijtimoiy amaliyot*”ning o‘zaro aloqadorligi doirasida talqin qilina boshladi. Mazkur yondashuv tilni faqat kommunikativ yoki referensial vazifani bajaruvchi neytral tizim sifatida emas, balki ijtimoiy ongda shakllangan qadriyatlar, stereotiplar va hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi murakkab semantik-pragmatik mexanizm sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa gender tadqiqotlarida til ijtimoiy tartibotlarni aks ettiribgina qolmay, balki ularni qayta ishlab chiqaruvchi va mustahkamlovchi diskursiv vosita sifatida qarala boshladi³⁰.

Frazeologik tizimda gender semantikasi ikki rejimda ro‘yobga chiqadi: eksplitsit (ochiq) va implitsit (yashirin).

Eksplitsit rejimda iboraning tarkibiy tuzilishi (komponentlari) jinsni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatadi: qarindoshlik terminlari (father/son; ota/o‘g‘il), ijtimoiy rol nomlari (husband; er), yoki antroponimik markerlar (erkak, yigit, мужик va h.k.). Gender markerlarini lisoniy tasniflash amaliyotida bunday komponentlarning uch ko‘rinishi ajratiladi: *atoqli otlar, jinsni bildiruvchi turdosh otlar* hamda *olmoshlar*³¹.

Mazkur nazariy yondashuvga tayanib, tadqiqotimiz obyekti uchun tanlab olingan kartoteka doirasida ingliz, o‘zbek va rus tillari materiallari kesimida tahlil qilinib, gender semantikasiga ega frazeologik birliklar lingvokognitiv mezonlar asosida tahlilga tortishni maqsadga muvofiq deb bildik: frazeologik fond tarkibida erkak va ayol obrazlarini ifodalovchi birliklar ajratilib, ularning semantik yo‘nalishi, metaforizatsiya zonasi hamda nutqiy qo‘llanish xususiyatlari

³⁰ Cameron D. Gender and Language Ideologies. // Journal of Sociolinguistics. – 2003. – Vol. 7, No. 4. – P. 447–467.

³¹ Баранов А.Н. Дескрипторная теория метафоры // Вопросы языкознания. – 1994. – № 1. – С.14–25.